

ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI IQTISODIY QARASHLARNING ILMIY-  
NAZARIY TAHLILI

Ismailova Fazilat Xabibullayevna

*Xorazm viloyati Xiva shahar Ogahiy nomidagi ijod maktabi.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlaridan o‘rin olgan iqtisodiy-siyosiy qarashlar, shuningdek, savdo-sotiq, tijorat kabi sohalarning rivojiga qo‘shgan hissasi haqida so‘z boradi. Navoiy asarlarining bugungi kundagi ahamiyati tahlil etilgan.*

**Abstract:** *This article talks about the economic and political views of Alisher Navoi, as well as his contribution to the development of such fields as trade and commerce. The significance of Navoi's works today is analyzed.*

**Аннотация:** *В данной статье рассказывается об экономических и политических взглядах Алишера Навои, а также его вкладе в развитие таких сфер, как торговля и коммерция. Анализируется значение творчества Навои в наши дни.*

**Kalit so‘zlar:** *iqtisod, tijorat, savdo-sotiq, hunarmandchilik, dehqonchilik, “Hiloliya”, “Vaqfiya”, “Mahbub ul-qulub”, “Hotami Toyiy”*

**Key words:** *economy, commerce, trade, crafts, agriculture, "Hiloliya", "Waqfia", "Mahbub ul-qulub", "Hotami Toyiy"*

**Ключевые слова:** *экономика, коммерция, торговля, ремесло, сельское хозяйство, "Хилолия", "Вакфия", "Махбуб уль- кулуб", "Хотами Тойий"*

**Kirish.** Ulug‘ bobokalonimiz Alisher Navoiy nafaqat o‘zbek va boshqa turkiy xalqlarning shoiri, mutafakkiri bo‘lgan, balki buyuk davlat arbobi ham bo‘lgan. G‘arbda chig‘atoy adabiyotining buyuk vakili deb bilishsa, sharqda „nizomi millati va din“ (din va millatning nizomi) unvoni bilan ulug‘lanadi. Hazrat Alisher Navoiy butun hayoti va ijodini insonning baxt-saodati, mamlakatining obodonchiligi, yurti ravnaqi uchun safarbar etgan. Shunday ekan, necha asrlar o‘tsa-da, shoir asarlari insoniyat uchun hayot maktabi bo‘lib qolaveradi. Navoiyning asarlari va uning bitgan g‘azallari haqiqatning rangin olamiga bitilgan o‘lmas madhiya kabidir. **Asosiy qism.** Hazrat Navoiyning asarlarini o‘qir ekanmiz, uning barcha sohaga doir fikrlarini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, Navoiy asarlarida va faoliyatida iqtisodiy masalalarga ham alohida o‘rin ajratilganligiga guvoh bo‘lamiz, shuningdek, tijorat, savdo masalalari ancha mukammal yoritilgan. U o‘z davrining siyosiy va iqtisodiy ahvolini yaxshilash, mamlakatning iqtisodiy qudratini barqarorlashtirish uchun kishilarda vatanparvarlik his-tuyg‘usini uyg‘otish zarurligini yaxshi anglagan holda o‘z qarashlarini shunga yo‘g‘riltirgan. Alisher Navoiy asarlarida savdogarlik ishi ma‘qullanib, tovlamachi va chayqovchilik qattiq tanqid qilinadi. Davlat arbobi sifatida u mamlakatni tinch saqlash, obodonlashtirish ishlariga katta hissa qo‘shgan. Qolaversa, Navoiy savdo-sotiq, hunarmandchilik va dehqonchilik sohalariga katta ahamiyat berib, ularni mamlakat

iqtisodiy rivojining asosi deb ta'rif bergan. Alisher Navoiyning iqtisodiy qarashlari va g'oyalari uning "Hiloliya", "Vaqfiya", "Mahbub ul-qulub", "Hotami Toyiy", asarlarida o'z aksini topgan. Navoiyning dastlabki ijtimoiy-iqtisodiy fikrlari shakllangan asari - bu 1469-yilda Husayn Boyqaroning taxtga kelishiga bag'ishlanib yozilgan "Hiloliya" asaridir. U shaxsning tarixdagi o'rniga katta e'tibor berib, mamlakatning iqtisodiy-siyosiy ahvoli mamlakat hukmdorining aql-idroki va qobiliyatiga bog'liqligini aytib shunday deydi: "Agar mamlakat hukmdori fanlarni, ayniqsa, iqtisodiyot, tarix, falsafa va siyosiy fanlarni mukammal bilsa, o'zi boshqarayotgan mamlakat obod va badavlat bo'ladi, agar aksi bo'lsa, mamlakat qashshoq va xarob bo'ladi". Husayn Boyqaro hukmronlik qilgan davrda hazrat Navoiy mamlakatda markazlashgan saltanat vujudga kelishi, viloyatlar obod etilishi, qishloqlarda dehqonchilik, shaharlarda hunarmandchilik va savdoning kengayib taraqqiy etishi yo'lida xizmat ko'rsatadi va saltanat tarixida nisbiy rivojlanish ko'zga tashlanadi. Asarda Alisher Navoiyning irrigatsion inshootlar qurilishiga ham sezilarli hissa qo'shganligini kuzatishimiz mumkin. Navoiy Markaziy Osiyo sharoiti uchun irrigatsion inshootlarni kengaytirish - iqtisodiy rivojlanishga olib boruvchi muhim omillardan biri ekanligini ta'kidlagan. Uning rahnamoligi ostida 70 dan ortiq kanallar va ariqlar qazildi. Milliy daromadning asosiy qismini qishloq xo'jaligida yetishtiriladigan hosildan olinadigan daromad tashkil etgan. Tarixdan ma'lumki, o'sha davr feodal jamiyatda irrigatsiya inshootlarini qurishni kengaytirish iqtisodiyotini rivojlantirishga keng ta'sir ko'rsatgan. Navoiy feodalizm davrida asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan yerni kengaytirishga, uning mahsuldorligini oshirishga katta e'tibor qaratgan.

Navoiy boylikni ikki yo'l bilan topish mumkin, deydi. Birinchi yo'li - bu o'z mehnati bilan iqtisod qilib boylikni to'plash, orttirish, yig'ish va o'ziga to'q yashash. Bunday boylik to'plashga Navoiy hayrihohlik bildirdi. U olingan va to'plangan boylikni uch qismga bo'lib, birinchi qismini ketgan harajatga, ikkinchi qismini o'zining va oilasining ehtiyojlariga, uchinchi qismini esa aholining ijtimoiy manfaatlar uchun sarflashga chaqiradi. Masalan, 1482-yilda yozilgan "Vaqfiya" asarida A.Navoiy shaxsan o'zining yerlaridan olingan daromad misolida daromadning o'z harajatlari va oila ahliga yetarli qismini olib qolib, qolgan qismini aholining foydali mehnatiga sarflashga chaqirgan. Boylik topishning ikkinchi yo'lga esa, ya'ni o'g'rilik, ta'magirlik va zo'rlik hisobiga boylik orttirishga Navoiy keskin qarshi chiqadi. U bunday ishlardan nafratlanadi va shu yo'l bilan boylik orttirayotgan kishilarni jamiyat hisobiga yashayotgan va boylik orttirayotgan parazit qatlamdir, deb ta'riflaydi. Shuningdek, "Vaqfiya" asarida Navoiyning xayriya ishlari va vaqf qildirgan mulk, yerlari haqida, vaqfiy joylardagi idora yoki xizmat uchun belgilangan lavozimlar, tayin qilingan maosh, o'rnatilgan tartib-qoidalar, xayriy marosimlar, binolar ta'miri haqida so'z ketadi va hokazo. Bu qaydlar orasida muallifning talabalar va mudarrislar hamda ularga belgilangan maosh sistemasi diqqatiga sazovordir. Masalan, har bir mudarrisda 11 tadan talaba bo'lishi kerak, talabalar esa o'zlashtirishlari darajasiga qarab a'lo, o'rta

va past guruhlarga bo‘linadi va maosh belgilanadi. Mudarrislar madrasa qoshida yashashlari kerak, aks holda ular belgilangan maoshning yarmini oladilar.

A.Navoiy ijodining durdona asarlaridan yana biri 1500-yilda yozilgan "Mahbub-ul-qulub" asaridir. Ushbu asarda Navoiyning iqtisodiy fikrlari mujassamlashgandir. Navoiyning fikricha, dehqonlar, hunarmandlar va chet el bilan aloqasi bor savdogarlar jamiyatda moddiy ne‘mat yetishtirishda, yaratishda va mamlakat boyligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. A.Navoiy dehqon va uning ishlab chiqarishdagi roli to‘g‘risida quyidagi fikrlarni bildiradi: "Don sochuvchi dehqon yorish bilan rizq yo‘lini ochuvchidir".

Navoiy ishlab chiqarishdagi hal qiluvchi omil, hal qiluvchi element - bu dehqon, ya'ni ishchi kuchidir, degan fikrni bildiradi. Uning fikricha, dehqon o‘z mehnati bilan o‘z ehtiyojiga zarur bo‘lgan mahsulotni keragidan ko‘proq ishlab chiqarib, jamiyat va uning ishlab chiqarishda ishtirok etmaydigan qismini ham moddiy ne‘mat bilan ta‘minlaydi.

Dehqoni azalki, tuzdi bu turfa chaman,

Qilmadi aning barcha nabotini hasan.

Bir sari agar ekti gulu sarvu suman

O‘zga sari tikti xasu xoshoku tikan.

A.Navoiy jamiyatda muhim tabaqa bo‘lgan savdogarlarning o‘zini ham ikki guruhga bo‘ladi. Birinchi guruh - chet el bilan savdo aloqalari olib boruvchi savdogarlar guruhi. Ikkinchi guruh - mamlakat ichkarisidagi olibsotarlar guruhi. Chet ellar bilan savdo-sotiq olib boruvchi savdogarlarga Navoiy ijobiy qaraydi va ularning faoliyatiga xayrihoxlik bildiradi. Bozorlardagi savdogarlarga, ya'ni olib sotarlarga esa tanqidiy ko‘z bilan qaraydi. Ular o‘z manfaatiga xizmat qilib, boshqalar hisobiga boyiydi. Shuning uchun ularning turgan-bitgani mamlakat uchun zarardir, deydi. Savdogarning asosiy maqsadi foyda olishdir.

Biri yuz bo‘lishidan boshida savdo to‘la,

Bo‘zi shoyi bo‘lishidan ko‘nglida istak ko‘p.

Bu yerda savdogar Navoiyning "Hotam Toyiy" asaridagi o‘tin teruvchi cholga qarama-qarshidir. Chol kuni bilan mehnat qilib o‘tin teradi va bu o‘tinni bozorga olib borib, pulga sotadi. O‘tin puliga esa mahsulotlar, ya'ni iste‘mol mahsulotlari sotib oladi. Bu joyda "tovar - pul - tovar" jarayoni boradi. O‘tinchi cholning ayirboshlashdan ko‘zlagan maqsadi iste‘mol qiymatidir. Navoiyning fikricha, savdogarning sotib olishdan maqsadi qimmatroq sotishdir. Savdogar birini yuz, yuzini ming qilmoqchi bo‘ladi, deydi. Qo‘ygan oz puli ko‘p bo‘lib qaytib kelishini istaydi, ya'ni uni ayirboshlashdan maqsad qiymatdir yoki "pul - tovar - pul" (P-T-P) dir. Demak, Navoiyning fikrida kapitalning dastlabki formalaridan biri mavjud bo‘lgan. U shahar olibsotarlari haqida quyidagilarni aytadi: "Shahar olibsotarlari xiyonatchi, o‘ziga foyda va boshqalarga qahat istovchi, uning foydasi xalqqa ziyon, arzon olib qimmat sotish uning orzusi. Olishda shoyini bo‘z deydi, sotishda bo‘zni maqtab shoyi deydi. Molini

tovar o'rnida o'tkaza olsa, to'xtatib turish yo'q. Do'konida insofdan boshqa barcha mol mavjuddir!" (A.Navoiy. Asarlar to'plami. XII tom,199-bet).

A.Navoiy o'zi ishlab chiqarishda va ishlab chiqarish sohasida mashg'ul bo'lmasada, o'z aqliy va ijodiy mehnati bilan jamiyat uchun kerak bo'lgan tabaqalarni e'zozlaydi, olimlar, tabiblar, shoirlar, muhandislar va boshqalarni jamiyat uchun zarur qatlamlar, deydi, ana shu kasb egalarini o'z mas'uliyat va burchlarini sezishga chaqiradi. Alisher Navoiy hazratlari o'z asarlarida iqtisodiyotning ravnaqi inson ma'naviyatining kamoloti bilan uyg'unligini takror-takror qayd etganlar. Jumladan mamlakat obodligi va el farovonligini yuksak manaviyat bilan quyidagicha bog'lagan:

To hirsu havas xirmoni barbod o'lmas,

To nafsu havo qasri baraftod o'lmas,

To jabr zulm jonig'a bedod o'lmas,

El shod o'lmas, mamlakat obod o'lmas

**Xulosa.** Xulosa o'rnida aytishimiz kerakki, o'zbek xalqining ulug' shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy o'zining vatanparvarlik va insonparvarlik g'oyalari bilan singdirilgan bebaho asarlarida jamiyatning har bir sohasiga alohida e'tibor qaratilganligi va o'sha sohaning ravnaqi uchun amalga oshirgan har bir ishi bugungi kunda ham biz uchun dasturulamal bo'lib xizmat qilishi uning benihoya yuksak e'tirofga sazovor ekanligini isbotlaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.Navoiy. Asarlar to'plami. XII tom,199-bet
2. O'zbek adabiyoti tarixi. Besh tomlik. Sh jild. - T.: Fan, 1978.
3. N.M.Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi, 1-kitob, "O'qituvchi". T., 1976.
4. Fozilov E. Sharqning mashhur filologlari. "Fan", T., 1971.
5. Shomuhamedov Sh. Fors-tojik adabiyoti klassiklari. O'zadabiynashr. T., 1963.
6. Homidov H. "Qirq besh alloma hikoyati". "Fan", T., 1994.
7. Haqqul I. "Tasavvuf va she'riyat". G'G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashr. T., 1992.
8. Valixo'jayev B. O'zbek epik poeziyasi tarixidan. "Fan", T., 1974.
9. Valixo'jayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. X-XIX asrlar. "O'zbekiston", 1993.